



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 7 - sentabr

VI-69-158-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risidagi Qonuni hamda Budjet kodeksida belgilangan tartibda Hisob palatasi tomonidan Bulung'ur tuman mahalliy budjetining 2021-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, "Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, Hisob palatasining 2022-yil 10-maydagi (02-430/7-sonli) "Bulung'ur tumani mahalliy budjetining 2021-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobot bo'yicha" xulosasini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonuni hamda Budjet kodeksida belgilangan tartibda Hisob palatasi tomonidan Bulung'ur tuman mahalliy budjetining 2021-yildagi ijrosi to'g'risida hisoboti haqida tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Eshmurotov), tuman hokimligi Moliya bo'limi (J.Narziyev), tuman G'aznachilik bo'linmasi (E.Niyozov)larga tuman mahalliy budjetining 2021-yildagi daromadlar prognoz ko'rsatkichlari hamda jismoniy shaxslar mol mulk solig'i bo'yicha 0,2 mlrd so'm, Yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy solig'i bo'yicha 0,5 mlrd so'mga bajarilmaganligi, tuman mahalliy budjetining 2021-

yildagi ijrosi yuzasidan amaldagi qonun hujjatlariga rioya etish ahvoli talab darajasida emasligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Eshmurotov), tuman hokimligi Moliya bo'limi (J.Narziyev), tuman G'aznachilik bo'linmasi (E.Niyozov) va tegishli tashkilot rahbarlari:

O'zbekiston Respublikasining budget kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuniga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5124-sonli qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli qarorlari talablariga qat'iy amal qilsin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (J.Narziyev), tuman G'aznachilik bo'linmasi (E.Niyozov) budget mablag'laridan qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin hamda monitoring natijalari to'g'risida har oy yakuni bilan tuman Kengashiga ma'lumot kiritib borsin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Habibullayev)ga Samarqand viloyati hokimligi moliya boshqarmasining 2022-yil 8-avgustdagi 01/01-38/572-sonli xatida keltirgan kamchiliklar bo'yicha tegishli ma'sul hodimlarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda choralar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilib borish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Nomozov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov